



**“OILAVIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATSIYANING  
O’RNI”**

*Anvarova Azizabonu Anvar qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

*[anvarovaazizabonu003@gmail.com](mailto:anvarovaazizabonu003@gmail.com)*

**ANNOTATSIYA:** Mediatsiya tushunchasi, lotincha “mediare” so‘zidan olingan bo‘lib, “vositachilik qilish” degan ma’noni anglatadi. Oilaviy nizolarni hal qilish mas’uliyatli vazifa hisoblanadi, shuning uchun ko’pgina xorijiy mamlakatlarda mediatorga kasbiy malaka, oilaviy mediatsiya sohasida qo’shimcha maxsus tayyorgarlik, yosh va amaliy tajribaga oid maxsus talablar mavjud. Aksariyat xorijiy mamlakatlarda oilaviy nizolarni sudga nisbatan mediatsiya orqali hal etish rivojlangan va uning ko’rsatkichi ancha yuqori. Ushbu maqolada mediatsiya hamda oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiyaning o’rni, shu bilan bir qatorda, uning muammolari yoritilib, ushbu muammolar yuzasidan amaliy takliflar beriladi va xorijiy davlatlarda mediatsiyasining o’rni tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar:** mediatsiya, oilaviy nizo, jamiyat, huquq, nizolarni muqobil hal qilish, vositachilik, sud, kelishuv, mediator

**АННОТАЦИЯ:** Понятие медиация происходит от латинского слова «mediare», что означает «посредничать». Разрешение семейных споров – ответственная задача, поэтому во многих зарубежных странах к медиаторам предъявляются особые требования к профессиональной квалификации, дополнительной специальной подготовке в области семейной медиации, возрасту и практическому опыту. В большинстве зарубежных стран разрешение семейных споров посредством медиации развито и его уровень достаточно высок. В данной статье освещена роль медиации в разрешении семейных споров, а также ее проблемы, даны практические предложения относительно этих проблем, а также проанализирована роль медиации в зарубежных странах.



**Ключевые слова:** медиация, семейный спор, общество, закон, альтернативное разрешение спора, медиация, суд, соглашение, медиатор.

**ABSTRACT:** The concept of mediation is derived from the Latin word "mediare", which means "to mediate". Resolving family disputes is a responsible task, therefore, in many foreign countries, mediators have special requirements for professional qualifications, additional special training in the field of family mediation, age and practical experience. In most foreign countries, the resolution of family disputes through mediation is developed and its rate is quite high. In this article, the role of mediation in solving family disputes, as well as its problems, are highlighted, practical suggestions are given regarding these problems, and the role of mediation in foreign countries is analyzed.

**Key words:** mediation, family dispute, society, law, alternative dispute resolution, mediation, court, agreement, mediator

### KIRISH

Ma'lumki, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, har bir oilada kelib chiqayotgan nizolar nafaqat o'sha oilaning o'z a'zolariga, balki butun bir jamiyatning umumiylar barqarorligi va tinchligiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Aynan shu sababli ham, oilaviy nizolarni hal qilishda va nizolar sodir bo'lishini oldini olishda samarali usullarni amalda joriy etish va uning ijrosini ta'minlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biriga aylangani xato emas. Chunki har bir oilada sodir bo'layotgan nizolar oila a'zolar o'rtasidagi munosabatlarni buzadi, ayniqsa, bolalar ruhiyatiga salbiy ta'sir qilib, oiladagi birdamlik, tinchlik va barqarorlikni zaiflashtiradi. Oilaviy nizolarni sud orqali hal qilish ortiqcha ovoragarchilik, ko'p vaqt va resurs talab qiladi. Bundan tashqari, sud jarayonlari taraflarning kelgusidagi munosabatlariga zarar yetkazishi mumkin. Chunki sudda mag'lub bo'lgan taraf sud xarajatlarini barchasini to'laydi, shuningdek, hal qiluv qarori ustidan norozi bo'lgan taqdirda appellatsiya shikoyati berish uchun davlat boji to'laydi, bu jarayonlar ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun ham nizolarni muqobil hal qilish mexanizmlari, ayniqsa, mediatsiya kundan kunda ommalashib bormoqda. Mediatsiya taraflarning o'zaro kelishuvi bo'lib, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, taraflar o'rtasidagi barqaror



munosabatlarni, oiladagi tinchlikni va ijtimoiy muhitni saqlab qolishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida 2018-yilning 12-iyunida "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, 28-iyunida Senat tomonidan ma'qullangan va 2019-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan.Qonunni qabul qilishdan maqsad - mediatsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 4 ta bob va 34 ta moddadan iborat.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

BMT ustavining 33-moddasida mediatsiya (ositachilik) nizolarni hal etish vositasi sifatida tan olingan. Mediatsiya- kelib chiqqan nizoni taraflar o'zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko'magida hal qilish usuli hisoblanadi. Mediatsiya maxfiylik, ixtiyoriylik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

**Mediatsiyaning maqsadi**— nizolashuvchi taraflarning nizolarini mustaqil, o'zaro foydali shartlar asosida hal etish imkoniyatini topishga ko'maklashishdan iborat bo'lib, uning asosiy tamoyillariga ixtiériylik, taraflarning tengligi, betaraflik, mediatorning xolisligi, maxfiylik kabilar kiradi. Mediatsiya jarayon muzokaralardan iborat bo'lib, uning muvaffaqiyati nafaqat taraflarning kelishmovchiliklarini hal etishga bo'lgan irodasi va intilishi, balki mediatorning tajribasi va mahoratiga ham bog'liqdir.

Ushbu maqolada mediatsiyaning oilaviy nizolarni hal qilishdagi ahamiyati tahlil qilindi va kamchiliklar o'r ganildi. Buning uchun quyidagi usullar qo'llanildi. Buning uchun mediatsiyaning nazariy asoslari va uning huquqiy jihatlari bo'yicha ilmiy maqolalar, tezislar, o'quv qo'llanmalari, darsliklar, qonun hujjatlari, xalqaro tajribalar va xorijiy huquqshunoslarning qo'llanmalari o'r ganildi,O'zbekistonda va xalqaro miqyosda oilaviy nizolarni mediatsiya orqali hal qilish bo'yicha statistik ma'lumotlar o'r ganildi va O'zbekiston va xorijiy davlatlarning ushbu yo'nalish bo'yicha tajribalari taqqoslandi,O'zbekiston va xorijiy davlatlarning sud jarayoni va



mediatsiya mexanizmlarining samaradorligi o'zaro taqqoslandi va muammolar tahlil qilindi.

## MUHOKAMA VA NATIJA

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni mediatsiya sohasini tartibga soluvchi qonun bo'lib, o'z navbatida, bir qator kamchiliklarga ega. Ushbu qonun hujjatining takomillashtirilishi yuzasidan islohotlar o'tkazilishi kerak. Bunda albatta, xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalangan holda ushbu qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi darkor. 2020-yilning 17-iyunida "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, Mediatsiya markazi va Nizolarni muqobil usulda hal etish markazi tashkil etildi. Ushbu markazlarning asosiy vazifalari mediatsiya, hakamlik sudlari va xalqaro arbitraj faoliyatiga nizolarni muqobil usulda hal etish tartib-taomilini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish, ularning faoliyatga aralashmaslik prinsipi asosida ish yuritish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitraj sohalarida mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun o'quv kurslarini tashkil etish va mediatsiya va nizolarni muqobil hal etishning boshqa usullari rivojlanishi uchun bu sohada seminarlar, treninglar va konferensiylar tashkil etishdan iborat.

Mediatsiya fuqarolik nizolarini hal etishda juda samarali. Hozirgi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan, muqobil yo'l bilan hal qilishga qaratilgan mediatsiya yarashtiruv protsedurasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Kelishuv tartiblari, ayniqsa, anglo-sakson huquq tizimida va kontinental Yevropa mamlakatlarida rivojlangan. Amerika Qo'shma Shtatlarida mediatsiya tartibida ko'rilgan ishlarning 95% i sudgacha bormaydi. Germaniyada muzokaralarning 90% dan ortig'i kelishuv bitimi bilan yakunlanadi, xususan, Quyi Saksoniyada bu ko'rsatkich - 97% ni tashkil etadi. Buyuk Britaniyada nizolarning 90-95% i sudgacha hal qilinadi. Yevropada esa mediatsiyaning muvaffaqiyat darajasi 40-80% ni tashkil qiladi.



O'zbekistonda mediatsiya sohasidagi,xususan,oilaviy nizolar bo'yicha mediatsiya sohasidagi kamchilik va muammolarni tahlil qilib, ularni hal qilish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Mediatsiya sohasidagi asosiy muammolardan biri-mediatsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning to'liq shakllanmaganligi va talabga javob bermasligidir. Fuqarolar esa mediatsiya to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotga ega emas,shuning uchun ham ular mediatorga emas, asosan, sudga murojaat qilishni afzal ko'rishadi. AQSHda esa butun huquq tizimi ko'pchilik nizolarning sudgacha ixtiyoriy ravishda hal etilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib,hattoki tomonlar mediator bilan bog'lanishlari uchun sud muhokamasi to'xtatilishi mumkin. Mamlakatda nizolarni hal qilish milliy instituti hamda xususiy va davlat mediatorlik xizmatlari mavjud. Bu muammoni hal qilish uchun "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqib,barcha sohalarni hal qilishga qaratilgan moddalarni qo'shish zarur. Shuningdek, 2018-yil 20-dekabrda qabul qilingan mediatsiya bo'yicha Singapur konvensiyasini qabul qilish orqali ham ushbu soha bo'yicha yangiliklar qabul qilinishi hamda boshqa ko'pgina mediatsiya rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik amalga oshirilib, ularning tajribasi o'rganilib,qo'llanilishi mumkin.

Keyingi muammo – sndlarning mediatsiyani muqobil vosita sifatida emas,balki ikkinchi darajali jarayon sifatida qabul qilishidadir. Shuning uchun ham sud tizimida mediatsiyani majburiy yoki ixtiyoriy bosqich sifatida joriy etish hamda sudyalarning mediatorlar bilan hamkorligini mustahkamlash zarur. Oilaviy nizolarda esa sndlarga alternativ sifatida mediatsiya xizmatlarini tavsiya etish orqali ushbu sohaning rivojiga hissa qo'shiladi. Sudda taraflar sudyani tanlay olmaydi, sudga esa faqat yashash joylari bo'yicha murojaat qilishga majburdirlar, sudning asosiy vazifasi taraflarning qaysi biri haq yoki aybdorligini aniqlashdan iborat bo'lsa, mediatsiya, aksincha,taraflarning kelishuviga erishishga hamda mediatorning yordami bilan nizoni hal qilishning turli xil yechimlarini muhokama qilishga qaratilgan, sudda taraflar sud qaroridan norozi bo'lsalar ham uni bajarishga majbur bo'lishadi yoki appellatsiya shikoyati bergan taqdirlaridayam appellatsiya instansiysi birinchi instansiya qarorini o'zgarishsiz qoldirsa, davlat boji to'lashlaridan tashqari, hal qiluv



qarorini bajaradilar, lekin mediatsiyada barcha qarorlar faqat taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va ular ixtiyoriy ravishda uni bajarish majburiyatini oladilar. Masalan, Germaniyada sudlar mediatorlar bilan bevosita ish olib boradi, bu esa yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sud jarayonlari sonini sezilarli darajada kamaytiradi. Xitoyda nizolarning 30% ga yaqini suddan tashqari hal qilinadi. Ushbu mamlakatda, agar tomonlar mediatsiya doirasida kelishuvga erishsa va uni hakamlik sudlari tomonidan ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda tasdiqlasa, bunday bitim hakamlik sudining qarori (arbitraj) kuchiga ega bo‘ladi. Shuning uchun sudning mediatsiya bilan hamkorlikda ish olib borishi yo’lga qo’yilib, nazorat qilinishi kerak.

Muammolardan yana biri- oilaviy nizolar bo‘yicha mediatsiya jarayonlari uchun standartlar va qoidalarning belgilanmaganligi. O‘zbekiston Respublikasi

“Oila kodeksi” da mediatsiya tushunchasi kiritilmagan va tartibga solinmagan. Aynan shuning uchun ham oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiya tartiblarining aniq kiritilmaganligi amaliyotda qiyinchilik tug’diradi. Nizo yuzaga kelgan taqdirda taraflar darhol sudga murojaat qilishadi. Masalan, Shvetsiyada oilaviy mediatsiya majburiy va sudga murojaat qilishdan oldin birinchi bosqich hisoblanadi. 2020-yilda Shvetsiyada oilaviy nizolarning 70% dan ortig‘i mediatsiya orqali hal qilingan. Niderlandiyada esa mediatsiya tizimi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Oilaviy nizolarda, ayniqsa, ajrashish jarayonlarida mediatsiya muhim o‘rin tutadi. Sud orqali hal qilingan holatlar mediatsiyaga nisbatan ikki baravar qimmat bo‘lgan. Ajrashish bilan bog‘liq holatlarning 60% dan ortig‘i mediatsiya orqali hal qilinadi. Kanada sud tizimida oilaviy nizolarning 85% ga yaqini mediatsiya orqali hal qilinadi. Singapurda esa oilaviy nizolarning 90% dan ko‘prog‘i mediatsiya orqali muvaffaqiyatli hal qilinadi. Kaliforniya oila kodeksining 3170-3188-moddalari mediatsiya jarayonlarini tartibga soladi va unda har bir holat aniq belgilab qo’yilgan. Germaniya Fuqarolik kodeksining 1353-1588-moddalarida oilaviy masalalar belgilab qo’yilgan va unda mediatsiya masalalarni sudga yetkazmasdan hal qilishning ixtiyoriy usuli sifatida tavsiya etilgan. Shu maqsadda, Oila kodeksining yangi tahriri ustida ish olib borilishi va mediatsiya sohasi tartibga solinishi kerak.



Shuningdek, oilaviy nizolarni hal qiluvchi mediatorlar sonini ko'paytirish hamda maxsus o'quv kurslari tashkil etish orqali ularning malakasini oshirish darkor.

Keyingi asosiy muammolardan biri - oiladagi ayollarga nisbatan amalga oshirilayotgan zo'ravonliklardir. Bu bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki ushbu zo'ravonlik orqali ko'p sonli ayollar o'z joniga qasd qilayotganiga ko'p marotaba guvoh bo'lyabmiz. 2018-yilgacha O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida "oilaviy zo'ravonlik" atamasi ham yo'q edi. Oiladagi zo'ravonlik jinoyat deb hisoblanmadi va buning uchun jazo yo'q edi. Ko'p yillar davomida bu muammo respublikada umuman yo'qdek tuyuldi, ular bu haqda gapirmaslikni afzal ko'rdilar. 2019-yil sentabrda qabul qilingan "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun jabrlanuvchilarni ichki ishlar organlari himoyasi bilan ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratdi. 2021-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ayollar va qizlarga nisbatan bosim va zo'ravonlik holatlari yuzasidan 39 ming 343 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 34 330 tasi yoki 87 foizi oila doirasida sodir etilgan. 2023-yilda esa O'zbekistonda sudlar oiladagi zo'ravonlik bo'yicha yangi moddalar bo'yicha 9131 kishini jinoiy javobgarlikka tortgan. Ushbu masalani hal qilish uchun mediatsiya jarayonida ayollar zo'ravonligiga barham berish, gender tengligi tamoyillarini nazorat qilish hamda ayollar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish zarur. Ayollar huquqlarini himoya qilish uchun mediatorlarni maxsus o'qitish, treninglar tashkil etish darkor. Shuningdek, aynan ayollar uchun maxsus mediatsiya markazlarini tashkil etish hamda kuchli psixolog va mediatorlarni unga jalb qilish kerak.

## XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, mediatsiya mexanizmi oilaviy nizolarni hal qilishda samarali vosita hisoblanadi. Bu nafaqat, nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi, balki jamiyatning barqarorligini va birdamligini ta'minlashga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mediatsiya sud jarayonlariga nisbatan tez va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lib, nizolarni hal qilishni yengillashtiradi hamda taraflarning kelishuviga sabab bo'ladi. Bu esa taraflar o'rtasidagi munosabatlarni saqlab qolish hamda bolalar manfaatini himoya qilishda muhim hisoblanadi. Ushbu



tadqiqot mediatsiya institutini rivojlantirish va uni keng tarqalishi zarurligini ko'rsatdi. Bunda mediatsiya faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan islohotlar olib borish, sudsarning mediatsiya bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ushbu sohani keng tarqalishi uchun Oila kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, oilaviy nizolar bo'yicha mediatsiya jarayonlari uchun standartlar va qoidalar belgilash hamda oilaviy nizolarni hal qiladigan mediatorlar malakasini oshirish,qayta o'qishlari uchun chuqurlashtirilgan maxsus kurslar tashkil etish,shuningdek, ayollar uchun maxsus mediatsiya markazlarini tashkil etishni taklif etaman.

Mediatsiya insoniylik hamda muloqotga asoslangan yondashuvi,natijaviyligi va tezkorligi bilan jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadigan vosita hisoblanadi.Uni takomillashtirish,mexanizmini kuchaytirish va keng targ'ib qilish orqali oilaviy barqarorlikni saqlashda va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda yuqori natijalarga erishish mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mediatsiya to'g'risidagi qonun qabul qilindi (04.07.2018)  
URL:<https://kun.uz/51430275?q=%2Fuz%2F51430275#>
2. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risidagi qonuni", 2018.  
URL:<https://lex.uz/docs/-3805227>
3. Mediatsiya to'g'risidagi qonun nimalarni tartibga soladi? ( 29.06.2018)  
URL:<https://m.kun.uz/news/2018/06/29/mediacia-tugrisidagi-konun-nimalarni-tartibga-soladi>
4. Mediatsiya bo'yicha dunyo tajribasi  
URL:<https://huquqburch.uz/mediatsiya-boyicha-dunyo-tajribasi/>
5. Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.06.2020.  
URL:<https://lex.uz/docs/-4859436>
6. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi,1998.  
URL:<https://lex.uz/docs/-104720>



7. Медиация: о чем говорит зарубежный опыт.

URL:[https://www.norma.uz/uz/nashi\\_obzori/mediaciya\\_o\\_chem\\_govorit\\_zarubejnyy\\_opyt](https://www.norma.uz/uz/nashi_obzori/mediaciya_o_chem_govorit_zarubejnyy_opyt)

8. California Family Code, 2023.

9. German Civil Code, 2002.

10. Nurmamatov Nurbek O'rinboy o'g'li, Qudrat Matkarimov Qalandarovich, "Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati" 2022.

11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi, 1945-yil 26-iyun.

URL:[https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/uncharter/charter\\_Uzbek.pdf](https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/uncharter/charter_Uzbek.pdf)

12. За домашнее насилие в 2023 году в Узбекистане было осуждено свыше 9100 человек, 2024.

URL:<https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/12/domestic-violence/>